



O'ZBEK XALQI JASORATI

Qoraboyev Zohidjon Bahodir o'g'li,

Namangan davlat niversiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E mail: Zohidjonqoraboyev782@gmail.com

Tel :+99895 900 70 90

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada o'zbek xalqining qadimiy tarixi, asrlar davomida ko'rsatgan jasorat va matonati, sabr-u toqati va ikkinchi jahon urushi davridagi qahramonliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbek xalqi, buyuk tarix, bag'rikenglik, qardosh xalqlar munosabatlari, ota-bobolar jasorati, Islom dini, olim-u fozillar, ikkinchi jahon urushi, Shomahmudovlar jasorati.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассказывается о мужестве, упорстве и терпении узбекского народа на протяжении веков, влиянии и последствиях Второй мировой войны на Центральную Азию, а также об их героизме во время войны.

Ключевые слова: Мужество узбекского народа, отношения между братскими народами, мужество наших предков, ислам, распространение и влияние ислама в Центральноазиатском регионе, ученые и добродетели, Вторая мировая война, мужество Шомахмудовых.

ANNOTATION. This article talks about the courage and tenacity and patience of the Uzbek people over the centuries, the impact and consequences of the Second World War on Central Asia, as well as their heroism during the war.

Key words: Courage of the Uzbek people, relations between brotherly nations, courage of our ancestors, Islam, the spread and influence of Islam in the Central Asian region, scholars and virtues, the Second World War, the courage of the Shomahmudovs.

Kirish: O'zbek xalqi qadim zamonlardan o'zining jasorati, matonati va fidoyiligi bilan ajralib turgan. Xalqimiz, tarix davomida turli sinovlarga duch kelgan bo'lsa-da, hech qachon o'z mustaqilligi va sha'ni yo'lida kurashishdan to'xtamagan. Buyuk sarkardalar, xalq qahramonlari va oddiy fuqarolar o'zining mardligi bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan. Ularning jasorati nafaqat jang maydonlarida, balki ilm-fan, madaniyat va jamiyat taraqqiyotida ham namoyon bo'lgan. Shu bois, o'zbek



xalqining mardligi va shijoati bugungi kunda ham milliy g'urur va vatanparvarlik timsoli sifatida qadrlanadi.

Asosiy qism. Markaziy Osiyo mintaqasida o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston kabi mustaqil davlatlar mavjud. Bizning jonajon mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasi ham shu Markaziy Osiyoning bir qator mustaqil mamlakatlari singari o'z tili, dini, davlat boshqaruvi eng asosiysi o'z xalqiga ega bo'lgan holda yaqin qo'shnilarimiz yani qardosh xalqarimiz hisoblangan qozoq, qirg'iz, turkman va tojiklar bilan qadim o'tmish va uzoq yillardan buyon istiqomat qilib kelmoqda. Bu hudud sivilizatsiyasida qariyb 2-3 ming ming yillardan beri hozirgi mintaqa xalqlarining tub ildizi hisoblangan va hozirgi ko'rinishga kelib shakllangunga qadar asos bo'lib xizmat qilgan turkiy xalqlar, ota-bobolarimizning xizmatlari benihoya kattadir. Shu kunga qadar qardosh xalqlarimiz ne ne qiyinchiliklar bo'lsa yelkama yelka turib, zaxmat chekib ko'p azoblarni boshdan kechirdi. Ammo hech qachon taslim bo'lmadi. Bizning ota bobolarimiz hozirgi tahlikali zamonda barchaning ko'z o'ngida, dunyo nigohi bizga qaratilgan davrda qaddimizni tik tutib, qo'rqmasdan tik boqib, "...ular mening ota bobom edi va hozirgi kelajagimiz uchun, mana shunday tinch totuvlikda yashamoqligimiz uchun jon fido qildilar", deya olishimiz uchun oldimizdagi barcha to'siqlarni buzib tashladilar. Bunda barcha davrlardagi shavkatli va qatiyatli xalqimizning xizmatlari benihoyadir. Ha albatta, qaysiki davr bo'lmasin bizning shonli o'tmishimiz faqatgina ijobiy nisbatlar bilan tarixga muxrangan. Islom dining yoyilishi natijasida mintaqa xalqlarimizning kelgusi taraqqiyoti uchun tamal toshi o'rnatilindi. Buning natijasida arab dunyosi, arab madaniyati shu bilan birga boshqa xalqlarning urf-odat, an'analari kirib keldi va bizning xalqimiz zo'r qiziqish bilan kutib oldi. Shu qatorda turkiy xalqlar madaniyati arab xalqlarining qiziqishiga sabab bo'ldi. Islom dini va uning paydo bo'lish tarixi bizlarni ortga nazar tashlashga, qariyb o'n to'rt yarim asrlik o'tmishga chorlaydi. Islom (arabcha – "bo'sunish", "itoat qilish") hozirgi kunda dunyodagi keng tarqalgan uchta yirik jahon dindan biri, yoyilishi bo'yicha birinchi o'rindagi dindir. Bu dinga etiqot qiluvchilar "muslim", "musulmon" deb ataladi, ma'nosi "sadoqatli"dir. Hozirgi kunda dunyo aholisining 25% , ya'ni deyarli 2 milliarga yaqin aholi islom diniga e'tiqod qiladi [1. – B. 1.]. Shu tariqa Markaziy Osiyo mintaqasida islom dini kirib kelishi orqali IX – XII, XIV – XV asrlar to'g'rirog'i birinchi va ikkinchi renessans davrida hozirgi dunyo ilm fani tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan buyuk faylasuf olimlarimiz yetishib chidilar. Ularning boy merosi hozirgi avlodlarga, biz kabi qalbi porloq, ilmga chanqoq yoshlarga muhim manba va meros bo'lib qoldi. Ularni



o'rganish va tadqiq qilish aynan bizning burchimizdir. Shu qatorda Markaziy Osiyo musulmon olimlari – Muso [al-Xorazmiy](#), [Abu Rayhon Beruniy](#), Abu Nasr [Forobiy](#), Abu Ali ibn Sinolar keyingi asrlarda Yevropa ilm-fani rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatdilar. Shuningdek, ota-bobolarimiz qoldirgan boy imiy va ma'naviy merosi dunyo olimlari qiziqishiga uzoq yillardan beri qiziqish uyg'otib tadqiq qilinishi va o'rganilishi uchun imkon yaratildi.

Ammo o'rta asrlar davrining bazi bir davrlari, xususan, xonliklar davrida ilm-fan uchun keng imkoniyatlar yaratilmadi. Ilm-fan taraqqiyoti bazi sohalari tadqiqotida uzilish vujudga keldi. Diniy mutassiblik kuchayishi bilan bog'liq xolda insonni o'rganuvchi ba'zi fanlar tibbiyot, aniq fanlar kabi dunyoviy bilimlarni o'rganishga taqiq qo'yidi. Shu tariqa ilm fan tarqqiyotida mintaqa Yevropadan ortda qolib ketdi. Ammo shunga qaramasdan, xonliklar o'rtasidagi nizolar bo'lib turishi bilan birga madaniyat, ilm-fan tarqqiyoti to'xtab qolgani yo'q. Sohibqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan mahobatli binolar ta'miri va saqlanishi uchun alohida etibor qaratildi. Shu bilan birga dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo sotiq sohalari rivojlanib bordi. Fan, adabiyot, san'at rivojlanishi ko'proq saroy doirasida bo'lib, qisman tor doirada dunyoviy va diniy asarlar yaratildi. O'z sohasining yetuk olimlari yetishib chiqdi. Xususan, Abulg'oziy Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Boborahim Mashrab, Ahmad Donish, Muhammad Solih, Gulhaniy, Muhammad Amin Buxoriy kabi ko'plab olim va yozuvchilar shu davrda ijod qildilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqi mislsiz jasorat ko'rsatdi. Ayol-u erkak, yosh-u qari, qiz-u o'g'il fron va front ortida mehnat qildi, mashaqqatlardan qat'iy nazar chekinmadi. Vatan ozodligi, yurt farovonli, xalq osoyishtaligi uchun tinimsiz mehnat qildilar. Ikkinchi jahon urushining dastlab Fashistlar Germaniyasining “Barbarossa rejasi” bilan SSSR hududiga 1941-yili 22-iyun' sanasida bostirib kirishi va 1939-yildagi Molotov – Ribbentrop paktining buzilishi natijasida SSSR-Germaniya urushi boshlanib ketadi. Shu orqali jahon urushining sharqiy fronti ochildi. Nemis askarlari tez suratlarda harakat qilib, 1941-yil kuziga kelib, Moskvaga qadar yetib keldilar. Garchi Markaziy Osiyo Ikkinchi jahon urushining bevosita jang maydonlaridan bo'lmasa ham, bu mintaqa SSSR g'alabasida muhim rol o'ynadi. Urushning dastlabki oylarida Moskva, Leningrad va boshqa yirik shaharlardagi zavodlar, ilmiy institutlar va madaniy muassasalar Markaziy Osiyoga, jumladan O'zbekistonga ko'chirildi. Minglab muhojir bolalar va qochqinlar Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarga joylashtirildi. Manbalarda ularning soni millionlab keltirilgan. O'zbek xalqi bolalar va muhojirlarga o'z uylaridan joy berdilar, ko'plab bolalar, “bolalar uyi”ga joylashtirilmasdan asrab



olingan. Shunday mard, bag'rikeng, insonparvarlik va mehr-oqibat timsoliga aylangan o'zbek oilalardan biri Shoahmad Shomahmudovlar oilasi edi. Ular urush davrida ota-onasidan ayrilgan bolalarni asrab olib, ularga mehr-muhabbat bilan g'amxo'rlik qilgan. Oila boshlig'i Shoahmad Shomahmudov – oddiy temirchi bo'lib, Toshkent shahrida yashagan. Uning rafiqasi Bahri Akramova bilan birga urush yillarida yetim qolgan bolalarni asrab olib, ularni tarbiyalashgan. Yetim bolalarning aksariyati ota-onasidan ayrilgan, ochlik va qashshoqlikdan aziyat chekayotgan bolalar edi. Shomahmudovlar oilasi 15 ta turli millat vakillaridan bo'lgan bolalarni asrab olib, ularni o'z farzandlaridek tarbiyaladi. Ular orasida rus, ukrain, belorus, latish, moldavan, tatar va boshqa millatlarga mansub bolalar bor edi. Ularning insonparvarlik yordami va fidoyiligi ko'pchilikka namuna bo'ldi. Sovet davrida ularning qahramonligi e'tirof etilib, Toshkent shahrida "Mehribonlik ramzi" deb atalgan yodgorlik o'rnatilgan. Ushbu haykal 1982-yilda haykaltarosh Dmitriy Ryabichev tomonidan yaratilgan. Afsuski, bu haykal 2017-yilda boshqa joyga ko'chirilgan, ammo 2020-yilda Toshkent markazida yangidan tiklangan. Shoahmad va Bahri Shomahmudovlarning hayoti o'zbek xalqining bag'rikengligi va mehribonligining yorqin timsoli hisoblanadi. Ularning insonparvarlik jasorati urush dahshatlari ichida ham yaxshilik va mehr-muhabbat mavjudligini isbotladi. Bugungi kunda ham ularning ismi faxr bilan tilga olinadi.

O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo respublikalari qishloq xo'jaligi mahsulotlari (paxta, bug'doy, go'sht, sut mahsulotlari) bilan frontni ta'minladi. Farg'ona vodiysi va Toshkentda urush uchun muhim sanoat tarmoqlari rivojlantirildi. Mamlakat hududdining g'arbiy qismida urush bo'layogan mintaqadan ko'plab sanoat korxonalari, zavod va fabrikalar ko'chirib keltirildi. Bu jarayon mintaqada sanoat rivojlanishiga turtki bo'ldi. Shu davrga mavjud sanoat korxonalari faqatgina qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga moslashgan edi. Ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalari hisobiga endi mintaqada faqatgina qishloq xo'jaligi mahsulotlari emas balki harbiy sanoat ham rivojlana boshladi. Ushbu sanoat korxonalari qisqa muddat ichida ishga tushurildi va front uchun zarur mahsulotlarni yetkazib bera boshladi. Markaziy Osiyodan mlnlab askarlar frontga jo'natildi, ular orasida ko'plab qahramonlar yetishib chiqdi. Xususan, Mamadali Topiboldiyev, Ahmadjon Shukurov, Zebo G'niyeva, Qo'chqor Turdiyev kabi minglab o'zbek qahramonlari urushda mardlik namunalarini ko'rsatgan. Urushda ishtirok etgan 120 mingdan ortiq vatandoshimizga harbiy orden va medallar topshirilgan. 338 nafar vatandoshimiz yuksak sovet ittifoqi qahramoni unvoniga



sazovor bo‘gan, 53 nafar vatandoshimiz uchchala darajali shon-shuhrat ordeni sohibiga aylangan.

Xulosa: O‘zbek xalqi asrlar davomida mardlik, jasorat va fidoyilik bilan ajralib kelgan. Ularning jasorati nafaqat harbiy maydonlarda, balki ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat sohalarida ham namoyon bo‘lgan. Ikkinchi jahon urushida ko‘rsatgan jasorati – bularning barchasi milliy g‘ururimizning yorqin sahifalaridir. Bugungi kunda ham O‘zbekiston xalqi mustaqillikni asrab-avaylash, taraqqiyot sari odimlash va yangi avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida fidoyilik ko‘rsatmoqda. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqi har qanday sinovlarga bardosh bera oladigan, jasorati va matonati bilan buyuk kelajak sari yo‘l oladigan xalqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom>.
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/madaniyatshunoslik/xonliklar-davrida-madaniy-hayot> .